



## DISTANCE EDUCATION - A PRIORITY OF FIRE SAFETY TRAINING

Roziev Rustam Ruzimurodovich

Bukhara Regional Department of Emergency Situations

Freelance researcher at Bukhara Engineering and Technology Institute

+ 99897306-17-78

### Abstract

This article discusses the development of an information and educational environment that forms a culture of fire safety through continuous education based on these rules of fire safety, the organization of short-term training in distance form, and reveals the essence of the application of distance education in the field of fire safety. Visually-slide show, video explaining fires and their negative consequences, risk factors highlights the positive results in the formation of students ' fire safety culture and skills in the field of fire safety.

**Keywords:** fire safety, fire safety culture, distance learning, continuing education, education, skills, qualification, e-learning resources, exhibition system, pedagogical design

### Annatsiya

Ushbu maqolada yong'in xavfsizligi qoidalariga oid ma'lumotlar asosida uzluksiz ta'lim olish orqali yong'in xavfsizligi madaniyatini shaklantiruvchi axborot-ta'lim muhitini ishlab chiqish, masofaviy shaklda qisqa muddatli o'quvlarni tashkil etish borasida fikr yuritilib, yong'in xavfsizligi sohasida masofaviy ta'limni qo'llash mohiyati ochib berilgan. Yong'inlar va ularning salbiy oqibatlarini, xavfli omillarini ko'rgazmali – slayd, video ko'rinishida tushuntirib berish ta'lim oluvchilarda yong'in xavfsizligi madaniyatini hamda yong'in xavfsizligi sohasida ko'nikma va malakalarni shakllantirishdagi ijobiy natijasi yoritilgan.

### Аннотация

В данной статье рассматривается развитие информационно-образовательной среды, формирующей культуру пожарной безопасности обучающихся через непрерывное образование на основе правил пожарной безопасности, организацию краткосрочного обучения в дистанционной форме, а также раскрывается сущность применения дистанционного образования в области пожарной безопасности. Изложено положительные результаты в формировании у обучающихся культуры и навыков в области пожарной безопасности, с



применение в учебном процессе наглядных пособий, слайд-шоу, видео материалов о опасных факторах пожара и их негативных последствий.

**Kalit so'zlar:** yong'in xavfsizligi, yong'in xavfsizligi madaniyati, masofaviy ta'lim, uzluksiz ta'lim, ta'lim-tarbiya, ko'nikma, malaka, elektron ta'lim resurslari, ko'rgazmalilik tizimi, pedagogik dizayn.

**Ключевые слова:** пожарная безопасность, культура пожарной безопасности, дистанционное обучение, непрерывное образование, образование, навыки, квалификация, электронные образовательные ресурсы, педагогический дизайн

**Kirish.** XXI asrda ta'lim jahon miqyosida barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "... butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish" dolzarb vazifa sifatida belgilandi [3].

Bu uzluksiz ta'lim tizimida, jumladan fuqarolarni tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlarga tayyorlash tizimida har bir insonning butun hayoti davomida turli xavflarning oldini olish va favqulodda vaziyatlar vaqtida to'g'ri harakatlanish ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya va masofaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirdi.

Mustaqillik yillarida zamonaviy talablar asosida yong'in xavfsizligi sohasida aholini tayyorlash va yong'in xavfsizligi madaniyatini shakllantirish, ko'ngilli yong'indan saqlash komandalari a'zolarini o'qitishning ta'lim sifatini oshirish maqsadida o'quv dasturlari, o'quv-metodik adabiyotlarini xalqaro talablar asosida yangilash, o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish kabi ishlarga alohida e'tibor qaratildi. Bu kabi keng qamrovli islohotlar natijasida yong'in xavfsizligi sohasi tizimida axborot-kommunikatsiya va masofaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llashga keng sharoitlar yaratildi.

Bugungi kunda yong'in xavfsizligi sohasi tizimida o'qitish usullarini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Sababi, shu kunga qadar davom etib kelayotgan Yan Amos Komenskiy tomonidan taklif etilgan sinf - dars shakli aynan fuqarolarni yong'in xavfsizligi sohasida tayyorlash tizimida mohiyati pasayib bormoqda.

Jumladan, fuqarolarni yong'in xavfsizligi sohasida tayyorlash tizimida o'quv muddati aniq belgilanmaganligi, o'quv mashg'ulotlar mazmunining bir xilligi, o'quv jarayoniga yo'naltiruvchi motivatsiyalarni shakllantirishning samarali mexanizmi ishlab chiqilmaganligi hamda ba'zi obyektiv (maxsus jihozlangan o'quv sinflari va malakali



xodimlarining yetishmasligi) va subyektiv (oilaviy sharoit, chekka hududlardan kelishning qiyinligi) sabablarga ko'ra sinf-dars shaklidagi mashg'ulotlarda to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etishda muammolar mavjud. Bu kabi muammolar zamonaviy texnologiyalar rivojlanishida yanada yaqqol ko'zga tashlanadi va yong'in xavfsizligi sohasida aholini tayyorlash, yong'in xavfsizligi madaniyatini shakllantirish, ko'ngilli yong'indan saqlash komandalari a'zolarini o'qitishni tashkil etishda yangicha pedagogik yondashuvlardan foydalanish zaruriyati yuzaga kelmoqda[2].

**Materiallar va usullar.** Yong'in xavfsizligi sohasida o'qitish jarayonida masofaviy o'qitish kursiga jalb etiladigan ta'lim oluvchilarning imkoniyatlari, sharoitlari, yoshi va ularning tayyorgarlik holati, salohiyati, ta'lim-tarbiya olish yoki ko'nikma va malaka oshirish uchun qo'yilgan talablari o'rganib chiqilishi zarur hisoblanadi. Shunga ko'ra masofaviy o'qitish kurslarini ishlab chiqish, o'qitish shakllari, usullari, texnologiyalarini aniqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'z navbatida masofaviy o'qitishning umumiy samaradorligiga ta'sir ko'rsatadigan omillarning biridir, sababi, masofaviy o'qitish ishlab chiqarishdan ajralmasdan turib amalga oshirilishi jihatidan kunduzgi o'qitishni tashkil etishdan farq qiladi.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida uzluksiz ta'lim tizimi turlari maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'limdan iboratligi qayd etilgan [1].

Nima uchun yong'in xavfsizligi yoki, umuman xavfsizlik sohasida kundalik, uzluksiz ta'lim olish zaruriyati yuzaga kelmoqda? Chunki, avvallari yong'in xavfsizligi sohasida olingan bilimlar bir necha yillargacha fuqarolarning ehtiyojini qondirgan bo'lsa, hozirda bunday ehtiyoj va talabning rivojlanishi, yangi texnologiyalarning hayotimizga kirib kelishi, yong'inning xavfli omillarini bartaraf etish va oldini olishga qaratilgan yondashuvlar davr talablariga to'g'ri kelmay qoldi.

Bu esa, har bir insonning yong'inlarning salbiy oqibatlarini, ularni oldini olish borasidagi yangi tendensiya va qoidalardan doimiy xabardor bo'lgan holda faoliyat ko'rsatishi uchun uzluksiz ta'lim olish lozimligini ko'rsatadi. Bu kabi zamon talablari asosida paydo bo'layotgan talablarning to'liq amalga oshirilishini kafolatlash uchun har bir fuqaroning uzluksiz ta'lim olishini ta'minlashga sharoit yaratish choralarini ko'rish vazifasini qo'yadi. Mazkur vazifani amalga oshirish maqsadida fuqarolarga sohaga oid elektron ta'lim resurslaridan samarali foydalanish va global internet tarmog'idan faol foydalanish orqali mustaqil ravishda ma'lumotlarni qidirib topish, saralash, tahlil qilish asosida tanqidiy va fuqarolarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan, yong'in xavfsizligi qoidalarga oid ma'lumotlar asosida uzluksiz ta'lim olish orqali yong'in



xavfsizligi madaniyatini shaklantirovchi axborot-ta'lim muhitini ishlab chiqish, masofaviy shaklda qisqa muddatli o'quvlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

**Natija va munozaralar.** Masofaviy ta'limda o'qitishning ko'rgazmalilik tizimi yoki boshqacha qilib aytadigan bo'lsak pedagogik dizayn asqotadi. O'qitishning ko'rgazmaliligi shuni tasdiqlaydiki, agar o'quvchilarda o'rganilayotgan jarayonlarni narsa va hodisalarni bevosita idrok qilish bilan bog'liq muayyan hissiy amaliy tajriba bo'lgan taqdirdagina ular bilimlarni ongli suratda o'zlashtiradilar hamda ularda ilmiy tasavvur va tushunchalar hosil qilish mumkin. Bu tamoyil orqali o'qitish jarayonida turli sezgilardan: ko'rish, eshitish, badan bilan sezish va boshqalardan foydalanishni talab etadi. Buyum qanchalik har tomonlama idrok qilinsa, o'quvchilarning shu buyum haqidagi bilimi ham shunchalik to'la va chuqur bo'ladi.

Ko'rgazmalilik tamoyili o'qitish maqsadlariga mos bo'lib, materialning mazmuni bilan belgilanadi. Bu materialni o'rganish esa, fuqarolarni chinakkam ilmiy va hayotiy muhim bilimlar bilan qurollantirishi kerak. Ko'rgazmalilik bu bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirib olishga hamda ularning hayot bilan, mehnat amaliyoti bilan bog'lanishiga yordam beradi. Yong'inlar va ularning salbiy oqibatlarini, xavfli omillarini ko'rgazmali – slayd, video ko'rinishida tushuntirib berish ta'lim oluvchilarda yong'in xavfsizligi madaniyatini hamda yong'in xavfsizligi sohasida ko'nikma va malakalarni shakllantirishda ijobiy natija beradi. Shu o'rinda ko'nikma va malakalar deganda biror shaxsning muayyan faoliyatini muvafaqqiyatli bajarishi uchun shart-sharoitlar yaratib beruvchi, tashqaridan kuzatish mumkin bo'lgan harakatlari va reaksiyalari tushuniladi. Malakalar ongli ravishda amalga oshirilgan faoliyatning tarkibiy qismiga kiruvchi avtomatik tarzda yuz beradigan harakatlardir [3].

Bizning fikrimizcha, masofaviy o'qitish kurslarini uzluksiz ta'lim tizimining barcha turlari uchun tashkil etish mumkin, faqat, unda kursda o'qitish shakllari, texnologiyalarini tanlash, o'quv-metodik ta'minotni ishlab chiqishda ta'lim oluvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ahamiyatli jihati shundaki, ta'lim oluvchi auditoriyasi xususiyatiga ko'ra o'quv-metodik materiallar ishlab chiqilishi, o'qitish usullarining tanlanishi zarur, sababi, avval boshidan to'g'ri yo'nalish olish butun kurs samaradorligini ta'minlashga ta'sir ko'rsatadi. Olingan bilimlar hali yangi va unutilmasidan oldin ularni real sharoitlarda sinab ko'rish yoki tegishli eksperiment bilan to'g'ri tasdiqlash zarur, bu nazariya bilan uning amaliyotdagi tatbiqini tushunarli qiladi va samarali bog'laydi.

**Xulosa** qilib aytadigan bo'lsak, masofaviy ta'lim yordamida aholini yong'in xavfsizligi sohasida tayyorlash, yong'in xavfsizligi madaniyatini shakllantirish orqali fuqarolarda



yong‘inlarni oldini olish, yong‘inlarni va uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha ko‘nikma va malakalar hosil qilishda muhim o‘rin tutadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020 yil 23 sentabr, 4 b.
2. Kasbiy ta’lim metodikasi. Axmetjanov M.M. va boshq. Buxoro- «Durdona» nashriyoti, 2020. b.-22.
3. Incheon declaration // Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).